



## LUTFIY POETIK NUTQINING LISONIY XUSUSIYATLARI VA BADIY MAHORATI

**Murodova Umida Boxodir qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Lutfiy g'azallarining til xususiyatlari va badiiy mahoratiga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda shoir asarlarining leksik hamda grammatik qatlamlari ilmiy tahlil etiladi. XV asr o'zbek adabiy tili rivojiga qo'shilgan hissa, xususan, fe'l nisbatlari, kelasi zamon shakllari va ot yasovchi morfemalarning funksional vazifalari aniq misollar orqali ko'rsatiladi. Matnda turkiy so'zlarning qo'llanilish darajasi, arxaik leksika va she'riyatdagi fonetik o'zgarishlar o'zaro qiyoslanadi. Maqola mumtoz adabiyot tili va uning tarixiy taraqqiyotini o'rganuvchi soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *Lutfiy merosi, o'zbek mumtoz she'riyati, til tarixi, leksik qatlam, grammatik qurilish, fonetik xususiyat, chig'atoy adabiyoti, g'azal janri, badiiy til.*

**Аннотация.** *В данном исследовании, посвященном языковым особенностям и художественному мастерству газелей Лутфи, проводится научный анализ лексических и грамматических пластов произведений поэта. На конкретных примерах демонстрируется вклад в развитие узбекского литературного языка XV века, в частности, функциональные задачи залогов глагола, форм будущего времени и словообразующих морфем имени существительного. В тексте сопоставляются уровень использования тюркских слов, архаическая лексика и фонетические изменения в поэзии. Статья предназначена для специалистов, изучающих язык классической литературы и его историческое развитие.*

**Ключевые слова:** *наследие Лутфи, узбекская классическая поэзия, история языка, лексический пласт, грамматический строй, фонетическая особенность, чагатайская литература, жанр газели, художественный язык.*

**Abstract.** *In this research, dedicated to the linguistic features and artistic mastery of Lutfi's gazelles, a scientific analysis of the lexical and grammatical layers of the poet's works is conducted. Through specific examples, the contribution to the development of the 15th-century Uzbek literary language is demonstrated, in particular, the functional roles of verb voices, future tense forms, and noun-forming morphemes. The text compares the level of use of Turkic words, archaic vocabulary, and phonetic changes in poetry. The article is intended for specialists studying the language of classical literature and its historical development.*

**Keywords:** *Lutfi's heritage, Uzbek classical poetry, history of language, lexical layer, grammatical structure, phonetic feature, Chagatay literature, gazelle genre, artistic language.*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Kirish.** Lutfiy o'zbek klassik adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir.

Alisher Navoiy Lutfiyning Sharq poeziyasining Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy kabi buyuk so'z ustodlari qatoriga qo'yib, unga yuqori baho beradi.

Lutfiy 1366-1367-yillar mobaynida Hirot atrofidagi xiyobonlardan biri- Dehi kanorda dunyoga keldi. U yoshlik chog'idan boshlab o'z zamonida mavjud bo'lgan bilimlarni egallashga, dunyoviy ilmlarni o'ranishga qiziqdi. O'z davrining mashhur tasavvuf olimlaridan Shahobiddin Xiyoboniy qo'lida tahsil ko'rdi. Alisher Navoiyning guvohlik berishicha, u faqirona hayot kechirgan. Hirot shoirlarining suhbatlarida qatnashib turgan va usto shoir sifatida ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'lgan. Naviyning asarida Lutfiy haqida shunday ma'lumot bor: "Mavlono yigitligida ulumi zohiriyni (shariat ilmlarini) takmil qilg'ondan so'ngra Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy (alayhirrahma) qoshida sufiya tariqida ham suluk qilg'ondi. Aziz va mutabarrak kishi erdi. Bu faqir ( ya'ni, Navoiy) borasida ko'p fotihalar o'qubdur. Umid ulkim, chun darvish kishi erdi, ba'z musajob bo'lmish bo'lg'ay." Lutfiy o'z ona tili bilan birga fors-tojik tilini ham yaxshi bilgan. Uning fors-tojikcha she'rlari Abdurahmon Jomiy kabi XV asr fors-tojik adabiyotining yirik namoyondasi tahsiniga sazovor bo'lgan. Shoirning lirik she'rlar "Devon"i uning hayotlik davridayoq katta shuhrat qozongan. Lutfiy she'riyati devonida hozircha ma'lum bo'lgan she'rlar asosida ularning quyidagi janrlarda yozilganini qabul qilish maqsadga muvofiqdir:

- G'azal.
- Qasida
- Ruboiy
- To'rtlik
- Tuyuq
- Qit'a
- Fard

Ularning hajmi 5548 misra- 2774 bayt. Lutfiy devonidagi yetakchi janr g'azal bo'lib, u son va hajm jihatdan devonning ko'pchilik qismini tashkil etadi.

**Asosiy qism:** Mavlono Lutfiy g'azallari badiiyati o'zining soddaligi, xalqchilligi va badiiy san'atlarga boyligi bilan ajralib turadi. Lutfiy asarlari leksikasining 55 foizdan ortig'ini turkiy so'zlar tashkil etadi. Shoir ijodi uchun leksik jihatdan quyidagilar ham xarakterliki, qadimgi turkiy tilga doir so'zlari uchraydi: ilik, ulus, qamug', irin, ujmog', ev, cherik, yazuq, yandi (qaytdi) singari Misol sifatida lingvistik nuqtayi nazaridan uning "Qachonki g'amzasi ko'z qonima qaro qilsa..." g'azalidagi eski o'zbek tiliga xos ayrim grammatik, leksik, fonetik xususiyatlariga to'xtalamiz:

Qachonki g'amzasi ko'z qonima qaro qilsa,

Xatosiz o'qni urar jonima, xato qilsa.

Bayt tarkibidagi "qonima" va "jonima" dagi –a qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilidagi –ga jo'nalish kelishigidir. –a/-ä Bu affikslar undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. Lekin uning qo'llanishi anrlar b'yicha chegaralangan. Bu forma XII-XIV asr she'riy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

asarlarda ham, prozaik asarlarda qo'llangani holda XV asr va undan keying davrlarda asosan she'riy asarlarda uchraydi.

Jafo ko'rub, oning uchun chiqar mening jonim,  
Meni xud o'lturur ul g'amza, gar vafo qilsa

Ushba baytdagi "oning" olmoshi uchinchi shaxs birlikni ifodalovchi ko'rsatish olmoshi (uning) vazifasida kelgan. shoir ijodida bu olmosh asosan mahbubaga yoki u bilan bog'liq narsalarga ishora qilish uchun qo'llaniladi. Lutfiy she'riyatida olmoshlarning bunday qo'llanishi eski o'zbek tili grammatik qoidalariga mos bo'lib, asarning ohangdorligiva badiiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi

2-satrdagi "o'lturur" fe'li asosi o'lmoq, -tur qo'shimchasi ortirma nisbat qo'shimchasi hisoblangan. Bu fe'l omonim hisoblanib bo'lmoq ma'nosi ham mavjud.

Ko'ngulsiz etti ko'zi, vah, ne bo'ldi, Tengri uchun,  
Dudog'idin meni bir suv urub ,davo qilsa?

Ish-harakatning nutq so'zlanib turgan vaqtdan oldin sodir bo'lganini va uning bajarilishi qat'iy ekanini bildiradigan -ti o'tgan zamon qo'shimchasi baytda qo'llangan. Fe'l asosi arangsiz undosh (bu o'rinda "t") bilan tugasa, unga qo'shiladigan qo'shimcha ham "t" bilan boshlangan (progressiv assimilyatsiya). "Ne" olmoshi eski o'zbek tilida keng qo'llangan va uning semantik qirralari ham ko'p bo'lgan 1) belgining miqdorini aniqlash ma'nosida; 2) sof belgi; 3) ritorik so'roq gaplarda so'z ma'nosini kuchaytirish 4) sabab-so'roq ma'nosida. "Ne" olmoshi to'liqsiz fe'llar bilan birga qo'llana olgan. Yuqorida ham shu holatni kuzatishimiz mumkin.

Yuziga sochdin o'gun tegmasun parishonlig',  
Ko'ngulni ul tun-u kun necha muftalo qilsa.

Eski o'zbek tilida -lig'/-lig qo'shimchasi bugungi o'zbek tilidagi -lik qo'shimchasining aynan o'zi bo'lib, u asosan mavhum otlar yasash uchun xizmat qilgan. Sifatga qo'shib holat yoki tushunchani anglatuvchi ot yasaydi. Parishon (tarqoq, to'zg'oq) sifatidan parishonlig' (tarqoqlik, parishonlik holati) oti yasalgan. Buyruq-istak maylining III shaxs birlik shakli eski o'zbek tilida -sun/-sün affiksi bilan hosil qilingan (tegmasun). Bu affiksning -sün/-sin variant o'tmishda o'g'uz va qipchoq guruhidagi turkiy tillar uchun xarakterli bo'lib, o'zbek tilida asosan XIX asrdan boshlab uchraydi.

Shakardek og'zi manga qubla omad xufya,  
Nedur so'zi oni(ng), shirin kerak, ado qilsa.

"Nedur" bu holatda ne olmoshi negizida shakllangan so'roq olmoshidir. Ne olmoshi ko'plik affiksini, tushum, chiqish kelishigi affikslarini olgan va ularda kelishik affikslari funksional bo'lgan, jo'nalish kelishigi affiksi esa olmosh tarkibida kristallashib qolgan.

Qachon xirom etsa, gulgun qabo kiyib ul sarv,  
Tilar bu g'uncha ko'ngul, kurtani qabo qilsa.

Lutfiy ma'shuqa tushunchasini ifodalashda oy, sarv, gul, moh, podshoh, siymbar, qora qosh, dilbar shohsuvor, kabi so'zlarning ko'chma ma'nolaridan foydalangan.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Yuqorida “ko’ngil” so’zning “ko’ngul” tarzida ifodalanishini ko’p kuzatdik. Lutfiy XV asr chig’atoy (eski o’zbek) adabiyoti vakili bo’lgani uchun hozirgi ko’ngul so’zi uning devonida deyarli har doim ko’ngul (lablangan unli bilan) shaklida qo’llaniladi. Bu o’sha davr tili uchun xos qonuniyatdir.

Qayu inoyatig'a Lutfiy uzr qo'lsunkim,  
So'kunji uhdasidin chiqmag'ay, duo qilsa.

Qayu olmoshi tarkibidagi –u formanti –i/-i egalik affiksining variantidir. Bu baytdagi –g’ay qo’shimchasi eski o’zbek tiliga xos bo’lib, asosan kelasi zamongumon fe’lini yasash uchun xizmat qilgan, bu qo’shimcha zamonaviy o’zbek tilidagi –ar (borar) yoki –sa kerak (borsa kerak) konstruksiyalariga to’g’ri keladi.

**Xulosa.** Mavlono Lutfiy ijodi nafaqat adabiy, balki tilshunoslik merosi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Uning she’riyati eski o’zbek tilining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini o’zida aks ettiradi, bu esa tilshunoslarga XV asr chig’atoy adabiy tili haqidagi tasavvurni kengaytiradi. Lutfiy olmoshlar, qo’shimchalar va leksik elementlarni badiiy maqsadda ishlatish orqali tilning funksional imkoniyatlarini namoyish etgan. Masalan, jo’nalish, buyruq, kelasi zamon va mavhum ot yasovchi qo’shimchalarning she’riy matnda qo’llanishi tilning sintaktik va morfologik tuzilishini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, uning g’azallarida xalq so’zlari va qadimgi turkiy leksika birlashib, tilning evolyutsiyasini, badiiy ifoda vositalarining shakllanishini o’rganish uchun muhim manba bo’ladi. Natijada, Lutfiy ijodi o’zbek tilining tarixiy rivojlanishi va adabiy-badiiy ifoda imkoniyatlarini tadqiq etishda nazariy va amaliy qiymatga ega ekanligi aniq ko’rinadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lutfiy. Tanlangan asarlar/ nashrga tayyorlovchi S. Erkinov. –Toshkent: davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. -112 bet
2. Lutfiy. So’z chamani: g’azallar/ nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. –Toshkent: Akademnashr, 2020. -128 bet.
3. Saidov Y. O’zbek adabiy tili tarixi: O’quv qo’llanma . –Buxoro: “Sadriiddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2019. 168 bet
4. Abdurahmonov G’, Shukurov Sh, Mahmudov Q: Darslik. -Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. -528 bet.
5. Abdushukurov B. O’zbek adabiy tili tarixi: O’quv qo’llanma. -Toshkent, 2020.
6. Valixo’jayev B. Malik ul-kalom mavlono Lutfiy (qo’llanma) –Samarqand: SamDU nashri, 1999. 115 bet.
7. Abdushukurov B. O’zbek tili tarixi: Darslik. –Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. 332 bet

